

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№1

2026
yanvar



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[™]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX
COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 490 sahifa.
2026-yil, yanvar

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afurovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ И ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОГО ТРАНСПОРТА УЗБЕКИСТАНА.....	26
Каракулов Фарход Зайпудинович	
TRANSPORT TIZIMIGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH VA TAKOMILLASHTIRISH USULLARI	33
Bababekova Gulchexra Baxtiyarovna	
QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQUARUVCHI KORXONALARNING SIFAT MENEJMENTI TIZIMINI BAHOLASH	38
Achilov Ilmurad Nematovich	
TURIZM OBYEKTLARINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEKANIZMLARI.....	45
Toshtemirov Xojiakbar Qahramon o'g'li	
КАЧЕСТВО КРЕДИТНОГО ПОРТФЕЛЯ БАНКОВ УЗБЕКИСТАНА ЧЕРЕЗ ПРИЗМУ ПРОБЛЕМНЫХ КРЕДИТОВ	51
Алиева Сусанна Сейрановна	
ВЛИЯНИЕ ЛИБЕРАЛИЗАЦИИ И РЫНОЧНЫХ МЕХАНИЗМОВ НА РАЗВИТИЕ ОВЦЕВОДСТВА И КАРАКУЛЕВОДСТВА В ГЛОБАЛЬНОМ МАСШТАБЕ	58
Нуриллаев Жамолиддин Ярашевич	
BARQAROR INVESTITSİYALAR: IQTISODIYOTDAGI ROLI VA DOLZARBLIGI	65
Ruzibayeva Nargiza Xakimovna	
KRAUDFANDING – BARQAROR RIVOJLANISHNI AMALGA OSHIRISH UCHUN INNOVATSION MOLIYAVIY VOSITA SIFATIDA.....	71
Ashurova Oltin Yuldashevna	
FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARINI DAVLAT TOMONIDAN QO'LLAB-QUVVATLASHDA MOLIYAVIY BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI.....	78
Xusanova Gulsum Baxtiyorovna	
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI UCHUN BARQAROR BREND QIYMATINI SHAKLLANTIRISH STRATEGIYALARI	84
Bekmurod Davlatmurotovich Ollaberganov, Zilola Baxramovna Abdikarimova	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISHDA KORPORATIV BOSHQARUVNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	89
Atajanov Kamal Atavayevich	
AVTOTRANSFORMATORLARNING TASHQI MAGNIT MAYDONINING MATEMATIK MODELI	96
Pirmatov Nurali Berdiyrovich, Bekishev Allabergen Yergashevich, Baxriddinov Begzod Alibek o'g'li	
O'ZBEKISTON VA JAHON AMALIYOTIDA BUDJET MUASSASALARIDA BUXGALTERIYA HISOBINING RIVOJLANISHIGA RETROSPEKTIV TAHLIL	101
Berdiyev Toshkenboy Panjiyevich	
TIJORAT BANKLARIDA MUAMMOLI KREDITLARNI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH: RISKGA ASOSLANGAN YONDASHUV VA AMALIY MEKANIZMLAR	108
Tojiyev Sardor Dilmurod o'g'li	
TIJORAT BANKLARI DEPOZIT BAZASINI MUSTAHKAMLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	113
Shayxiev Boburbek Ulug'bekovich	
DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGI ASOSIDA OLIY TA'LIM TIZIMINI TRANSFORMATSIYA QILISHNING KONSEPTUAL MODELI.....	120
Abdullayev Javohir Abdumalik o'g'li	



GEODEZIYA VA GIS TEXNOLOGIYALARINING INTEGRATSIYASI.....	125
Ziynura sabirova	
RESPUBLIKADA UY-JOY QURILISHI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA DAVLAT VA XUSUSIY SEKTOR HAMKORLIGINING O'RNI	129
Otajonov Tohirjon Xo'janazar o'g'li	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ТРУДОВЫХ ОТНОШЕНИЙ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОГО ТРАНСПОРТА АО «УЗБЕКИСТОН ТЕМИР ЙУЛЛАРИ» В УСЛОВИЯХ СТРУКТУРНЫХ РЕФОРМ.....	133
Кадилова Шарофат Амоновна	
KASBLARNI MODERNIZATSIYA QILISH VA MEHNAT BOZORINING YANGI MODELINI BARPO ETISH	139
Ruziyev Oybek Abdumuminovich, Nurboyev Jaloliddin Mamadiyevich	
O'ZBEKISTONDA AVTOMOBIL BIZNESINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	143
Saidov Dilshodbek Razzakovich	
QISHLOQ JOYLARIDA MEHNAT RESURSLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI BAHOLASH USULLARI	148
Amaniyazova Rayhan Bayniyazovna	
ЭКОНОМИЧЕСКАЯ ОЦЕНКА ЭКСПЛУАТАЦИОННОЙ УСТОЙЧИВОСТИ МАЛОМОЩНЫХ СЕТЕВЫХ СОЛНЕЧНЫХ ФОТОЭЛЕКТРИЧЕСКИХ СТАНЦИЙ В УСЛОВИЯХ УЗБЕКИСТАНА	153
Кудратов Афзалхужа Рустамович, Далмурадова Наргиза Нуриллаевна, Шогучкаров Санжар Кодирович	
MINTAQADA PARRANDACHILIK SANOATINI RIVOJLANTIRISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR VA ULARNING IQTISODIY SAMARADORLIKKA TA'SIRI	161
Qarshiyev Obidjon Egamberdiyevich	
INNOVATSION BANK EKOTIZIMLARINING TIJORAT BANKLARI RIVOJLANISHIDAGI ROLI	165
Aliyev Hasan Rayimjonovich	
ANALYSIS OF FACTORS OF INTENSIVE ECONOMIC GROWTH IN UZBEKISTAN	171
Sharipov Kamil	
SUN'IY INTELLEKT – TO'RTINCHI SANOAT INQILOBINING ASOSI.....	176
Kalonov Muxiddin Baxriddinovich	
KORXONALARDA MOLIVAVIY BOSHQARUVNING TASHKILY VA IQTISODIY MASALALARI	187
Jumayev Samariddin Ziyodullaevich	
YASHIL IQTISODIYOT KONSEPSIYASI ASOSIDA KICHIK BIZNES FAOLIYATINI OSHIRISH YO'LLARI	193
Isroilov Dilshodbek Rustamovich	
TALABALARDA O'Z-O'ZINI TARTIBGA SOLISH KO'NIKMALARINING RIVOJLANISHIDA INTERAKTIV TA'LIM PLATFORMALARINING O'RNI	198
Bozorova Muazzam Hamid qizi, Hakimova Gulnora Abdullo qizi, Hakimova Mushtariybonu Hamid qizi	
XIZMAT KO'RSATISH TARMOQLARIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA MONOPOLIYAGA QARSHI NAZORATNING XORIJIY TAJRIBASI	203
Bekbutayev Nodirjon Fayzullayevich	
XORAZM VILOYATIDA KAMBAG'ALLIK DARAJASINING O'ZGARISHI VA BU JARAYONGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI	208
Mayliyeva Sadoqat Safayozovna	
IQTISODIY-MATEMATIK VA SSENARIYLI YONDASHUVLARDAN FOYDALANIB SANOAT RIVOJLANISHINI BAHOLASH VA PROGNOZLASH	213
Turdiyev Ulug'bek Qayumovich, Qayumova Nurafshona Ulug'bek qizi	
EKSPORTNI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARINING DOLZARBLIGI	217
Abdivaliyev Shahzodbek Xayrullayevich, Mutalov Sultonbek Abduraim o'g'li, Baymanova Mavlyuda Djurayevna, Ubaydullayeva Gulchexra Erkabayevna, Aipova Iroda Ikramovna	



LEGAL AND INSTITUTIONAL FOUNDATIONS OF ECONOMIC COOPERATION BETWEEN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN AND INTERNATIONAL FINANCIAL INSTITUTIONS	222
Yovkochev Sherzod	
ICHKI AUDIT FUNKSIYALARINING ICHKI NAZORATNI TA'MINLASHDAGI AHAMIYATI	228
Tursunov Shohruxmirzo Baxtiyor o'g'li	
MOSH DONINI YANCHIB OLISHDA QO'LLANILADIGAN QURILMANI LOYIHALASH	232
Qurbanov Abdimalik Jo'rayevich	
DAVLAT BOSHQARUVIDA SAMARADORLIKNI BAHOLASH: INSTITUTSIONAL MEXANIZMLAR, RAQAMLI YECHIMLAR VA AMALIY KUTILMALAR	239
Sarvar Saidov Xayrulloevich	
O'ZBEKISTONDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISH KONSEPSIYASI DOIRASIDA UNING INFRATUZILMASINI TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH BORASIDA TAVSIYALAR	244
Tashov Mizrob Maxmudovich	
DAVLAT BOSHQARUV ORGANLARIDA INSON KAPITALINI BOSHQARISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARI	251
Mashrabaliyev Ibroximbek Mashrabaliyevich	
ФИНАНСЫ И ВЫСШАЯ МАТЕМАТИКА В КОНТЕКСТЕ ГЛОБАЛЬНОГО РАЗВИТИЯ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ И ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА	257
Айматова Фарида Хуразовна	
ZAMONAVIY IQTISODIY RIVOJLANISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING ROLI	263
Salayeva Dilafro'z Aybekovna	
ДИАГНОСТИКА СИНХРОННОГО ДВИГАТЕЛЯ НА ОСНОВЕ ИЗМЕРЕНИЯ ВНЕШНЕГО МАГНИТНОГО ПОЛЯ	267
Пирматов Нурали Бердярович, Бекишев Аллаберген Ергашевич, Мамуров Алмас Жумабой угли	
XORIJIIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI ASOSIDA SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI VA XUSUSIYATLARI	275
Kurbanova Shaxnoza Yuldashbayevna	
СТРАТЕГИЧЕСКАЯ ОЦЕНКА СТОИМОСТИ КОМПАНИИ В СДЕЛКАХ СЛИЯНИЙ И ПОГЛОЩЕНИЙ	279
Ли Илларион Георгиевич	
KO'P YADROLI CPU VA GPU ARXITEKTURALARIDA DIFFERENSIAL TENGLAMALARNI SONLI YECHISH UCHUN PARALLEL ALGORITMLARNI ISHLAB CHIQISH VA SAMARADORLIGINI BAHOLASH	284
Ismailov Shixnazar Rashid o'g'li, Ubaydullayev Farrux Fathulla o'g'li, Odilov Asliddin Isoq o'g'li	
СИСТЕМАТИЧЕСКОЕ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ НАЛОГООБЛОЖЕНИЯ — ОСНОВА ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ЭКОНОМИКИ	291
Муталов Абдуазим	
O'ZBEKISTONDA INVESTITSIYALARNING HUDUDIIY TARKIBI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	295
Ermamatov Shonazar Jumakulovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA INVESTITSIYA SIYOSATI: INSTITUTSIONAL VA RAQAMLI ISLOHOTLAR	302
Sobirov Yo'ldoshboy Ro'zimboevich	
QASHQADARYO VILOYATINING IJTIMOIIY-IQTISODIY SALOHIIYATI VA BARQAROR RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	310
Tuyev Abdurahmon Yusubovich	
TEMIR YO'L STANSIYALARIDA STRELKALI O'TKAZGICH QURILMALARI BO'YICHA YO'L QO'YILGAN NOSOZLIKLAR VA ULARNING TAHLILI	315
Yunusova Gulshanoy Umarali qizi	



SANOAT KORXONALARIDA ASOSIY FONDLARDAN VA ISHLAB CHIQUVATIDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI.....	320
Ulashev Xubbim Askarovich	
TURLI YO'L SHAROITLARIDA TO'QNASHUV PAYTIDA TORMOZLASH VA BOSHQARUV PARAMETRLARI	324
Uralbayev Anvar Ubaydullayevich	
YANGI YARATILGAN MAHALLIY DURAGAY PILLALARNI YAKKA CHUVISH NATIJALARINING TAHLILI.....	328
Sobirov Qo'ziboy Erkinovich	
UY-JOY KOMMUNAL XIZMAT KO'RSATISHNI ZAMONAVIY YO'LLARI.....	332
Boboqulov S.B.	
TARJIMON DASTURLARIDA MULTITILLARNI TASNIFLASH: MAVJUD YONDOSHUVLAR VA MUAMMOLAR	338
Maxmudjanova Sayyora Yashin qizi	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIDA ICHKI AXBOROT TIZIMLARINING MODERNIZATSIYASI ORQALI ISHLAB CHIQUVATIDAN JARAYONLARINI OPTIMALLASHTIRISH	343
Yo'ldoshev Nodirbek Ne'matjon o'g'li	
NEFT VA GAZ TERMINOLOGIYASINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHINING NAZARIY ASOSLARI.....	349
Jo'rayeva Malohat Muhammadovna, Quryozova Gulshan Akmal qizi	
УСИЛЕНИЕ РОЛИ МЕЖДУНАРОДНЫХ ДЕНЕЖНЫХ ПЕРЕВОДОВ В ДОСТИЖЕНИИ УСТОЙЧИВОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА В УЗБЕКИСТАНЕ	355
Гимранова О. Б.	
TIJORAT BANKLARI FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITSIYA OPERATSIYALARINING AHAMIYATI.....	361
Yuldashev Fozil Turapovich	
QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'INI HISOBLASH VA UNDIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING DOLZARB MASALALARI	373
Jumanazarov Alisher Toshtemir o'g'li	
ВЛИЯНИЕ КАЧЕСТВА ПУБЛИЧНОГО ФИНАНСОВОГО УПРАВЛЕНИЯ НА ДИНАМИКУ ЭКОНОМИКИ	377
Наимов Шохрух Шарофиддинович	
DIVIDEND SIYOSATINI SHAKLLANTIRISHDA FOYDA SIFATI VA FOYDANI BOSHQARISHNING TA'SIRI.....	383
Eshev Furqat A'zamovich	
ТРАНСФОРМАЦИЯ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ УМНЫМ ГОРОДОМ НА БАЗЕ ЦИФРОВЫХ ПЛАТФОРМ С ОРИЕНТАЦИЕЙ НА ЧЕЛОВЕКА	388
Рахимова Мадина Шухрат кизи	
XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA HISOB SIYOSATINING USLUBIY JIHATLARI	393
Toshpo'latov A. A.	
MOLIYAVIY HISOBOT ISHONCHLILIGINI OSHIRISH YO'NALISHLARI.....	398
Zufarova Zilola Rahim qizi	
RAQAMLI PUL TIZIMINING KORRUPSIYA VA YASHIRIN IQTISODIYOTGA QARSHI KURASHDAGI INSTITUTSIONAL AHAMIYATI.....	403
Putatov Dilshod Xaqberdiyevich, Abdiyev Mansur Musurmonovich	
KICHIK TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA SOLIQ HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH.....	408
Toshtemirov To'liqin Toirjonovich	
АКТИВИЗАЦИЯ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ И ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИНВЕСТИЦИЙ В СЕЛЬСКОМ ХОЗЯЙСТВЕ В УСЛОВИЯХ ПРИАРАЛЬЯ (НА ПРИМЕРЕ РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН).....	411
Жоллыбеков Хурмет Бахыт улы	



KORPORATIV MUNOSABATLAR ISHTIROKCHILARINING HUQUQLARINI HIMOYA ETISH VA TA'MINLASHNING HUQUQIY-IQTISODIY SHAKLLARI.....	416
Rustamova Dilbar Rustamovna	
IQTISODIY TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA STRATEGIK MENEJMENTNI RIVOJLANTIRISHNING XORIJIY TAJRIBALARI	423
Ismadiyarov Alisher Abduraxmon o'g'li	
METALLURGIK TEXNOGEN CHIQINDILARDAN KAMYOB METALLARNI AJRATIB OLISH TEKNOLOGIYASI	427
Qayumov Oybek Azamat o'g'li, Ro'ziyev Ulug'bek Mamarasulovich, Abdullayev Farruh Odiljon o'g'li	
TRANSCHEGARAVIY ELEKTRON SAVDONI TAKOMILLASHTIRISHDA XO'JALIK ALOQALARI LOGISTIKASI.....	434
Yakubov Maksadxan Sultaniyazovich, Jumaboev Behzod	
YASHIL IQTISODIYOTGA INVESTISIYALARNI JALB QILISH	443
Raimjanova Madina Asrarovna	
O'ZBEKISTONDA ZARGARLIK XIZMATLARI BOZORINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI	448
Azizova Roxila Baxodir qizi	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARI FAOLIYATIDA INVESTITSİYALARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING EKONOMETRIK MODELASHTIRISH	452
Isakova Naima Ikromjonovna	
RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKATLAR IQTISODIYOTIDA AJ "HUDUDIY ELEKTR TARMOQLARI" MOLIYAVIY BARQARORLIGINI MUSTAHKAMLASH YO'LLARI	459
Bo'ranboyeva Shoira Rustamovna	
"QISHLOQ HUDUDLARIDA XOTIN-QIZLARNING BARQAROR TURMUSH TARZINI TA'MINLASHDA NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTLARINING O'RNI VA AHAMIYATI"	466
Xoliyorova Shoxista Qahramon qizi, Niyozova Ruxsora	
SMART TOURISM KAK INSTRUMENT USTOYCHIVOGO RAZVITIYA TURISTSKIX REGIONOV: МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ И РЕГИОНАЛЬНАЯ АДАПТАЦИЯ	471
Усманова Азиза Баходировна	
XUFIYONA IQTISODIYOT KO'LAMINI QISQARTIRISHDA SOLIQ MA'MURCHILIGINI RIVOJLANTIRISHNING TUTGAN O'RNI	477
Atamurodov To'liqin To'yurodovich, Mamatkulov Salimjon Rahmonkulovich, Abdiyev Mansur Musurmonovich	
IQTISODIYOTDA TURIZM O'RNINI STATISTIK TAHLILINING XALQARO STANDARTLARI VA TAJRIBALARI	482
Jumanova Zilola Tuychiyevna	



IQTISODIYOTDA TURIZM O'RNINI STATISTIK TAHLILINING XALQARO STANDARTLARI VA TAJRIBALARI

Jumanova Zilola Tuychiyevna

TDIU, Ekonometrika kafedrası PhD, v.b. dotsent

E-mail: jumanovazilola247@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada xalqaro standartlar va ilg'or tajribalar asosida iqtisodiyotda turizmning o'rni statistik jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda turizmning bevosita va multiplikativ ta'siri, ichki va xalqaro turizmning rivojlanish tendensiyalari, shuningdek, turli mamlakatlarning turizm sohasidagi yutuqlari va statistik hisoblash metodlari o'rganilgan. Shuningdek, pandemiya davrida ichki turizmning ahamiyati hamda uni rivojlantirish bo'yicha jahon tajribalari yoritib berilgan. Tadqiqot natijalari asosida turizm statistikasini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: turizm statistikasi, xalqaro standartlar, ichki turizm, multiplikativ ta'sir, pandemiya, statistik tahlil, turizm tushumlari, turizm infratuzilmasi.

Abstract. This article presents a statistical analysis of the role of tourism in the economy based on international standards and best practices. The study examines the direct and multiplicative effects of tourism, development trends of domestic and international tourism, as well as the achievements of various countries in the tourism sector and methods of statistical accounting. In addition, the importance of domestic tourism during the pandemic period and global experiences in its development are highlighted. Based on the research findings, scientific and practical recommendations aimed at improving tourism statistics have been developed.

Keywords: tourism statistics, international standards, domestic tourism, multiplicative effect, pandemic, statistical analysis, tourism revenue, tourism infrastructure.

Аннотация. В данной статье на основе международных стандартов и передового опыта проведён статистический анализ роли туризма в экономике. В исследовании рассмотрены прямое и мультипликативное влияние туризма, тенденции развития внутреннего и международного туризма, а также достижения различных стран в сфере туризма и методы статистического учёта. Кроме того, проанализировано значение внутреннего туризма в период пандемии и представлен мировой опыт его развития. На основе полученных результатов разработаны научно-практические предложения по совершенствованию туристической статистики.

Ключевые слова: статистика туризма, международные стандарты, внутренний туризм, мультипликативный эффект, пандемия, статистический анализ, доходы от туризма, туристическая инфраструктура.

KIRISH

Ilmiy tadqiqotlarda turizmning iqtisodiyotga to'g'ridan to'g'ri ta'siri masalasi bo'yicha ko'plab izlanishlar olib borilgan. Buning asosiy sabablaridan biri turizm faoliyatining bevosita ta'sirini baholash imkonini beruvchi xalqaro statistik standartlarning mavjudligi bilan izohlanadi. Mazkur standartlar turizm sohasidagi asosiy iqtisodiy jarayonlarni tizimli ravishda hisobga olish va tahlil qilishga xizmat qiladi.

Xususan, Turizm yordamchi hisoblari (TYoH), turistlar soni, turizm tushumlari va turistik xarajatlar ko'rsatkichlari turizmning to'g'ridan to'g'ri iqtisodiy ta'sirini aniqlashda muhim statistik tizim sifatida e'tirof etiladi. Ushbu ko'rsatkichlar orqali turizmning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi, bandlikka qo'shgan hissasi hamda iqtisodiy faollikni rag'batlantirish darajasi baholanadi. Shu bois, turizmning to'g'ridan to'g'ri ta'sirini ilmiy asosda tahlil qilish xalqaro statistik yondashuvlarga tayangan holda amalga oshirilishi muhim ahamiyat kasb etadi.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Turizmning iqtisodiyotdagi o'rnini statistik jihatdan baholash jarayonida uning bevosita va multiplikativ ta'siri masalasi nisbatan kam o'rganilgan yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ayni paytda, Xitoy va Rossiya olimlari tomonidan olib borilayotgan so'nggi tadqiqotlarda turizmning aynan bevosita hamda multiplikativ ta'sirini aniqlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ushbu tadqiqotlar turizmning yalpi ichki mahsulotga, bandlikka va hududiy rivojlanishga qo'shayotgan hissasini statistik jihatdan chuqurroq tahlil qilish zaruratini asoslab beradi.

Umuman olganda, turizm sohasining jadal rivojlanishi hamda uning deyarli barcha mamlakatlar iqtisodiyotida mustahkam o'rin egallab borishi har bir ta'sir turini alohida ilmiy tadqiq etishni taqozo etadi. Shu jihatdan, turizmning iqtisodiy jarayonlarga ta'sirini xalqaro statistik yondashuvlar asosida o'rganish dolzarb ilmiy vazifa sifatida namoyon bo'lmoqda.

Butun dunyo bo'ylab sayohat cheklovlari bosqichma-bosqich yumshatila boshlaganidan so'ng, ko'plab davlatlar turizmni tiklashda asosiy e'tiborni ichki turizmni rivojlantirishga qaratmoqda. Jahon sayyohlik tashkiloti (WTO) ma'lumotlariga ko'ra, ichki turizm xalqaro turizmga nisbatan tezroq tiklanadi hamda rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarga COVID-19 pandemiyasining ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini yumshatish imkonini beradi.

Jahon sayyohlik tashkiloti ma'lumotlariga murojaat qiladigan bo'lsak, 2018-yilda dunyo bo'ylab qariyb 9 milliardta ichki turistik sayohatlar amalga oshirilgan bo'lib, bu ko'rsatkich xalqaro sayyohlar sonidan olti baravar ko'p ekanligini ko'rsatadi (2018-yilda – 1,4 milliard kishi). Ushbu raqamlar ichki turizmning global miqyosdagi ulkan salohiyatini yaqqol namoyon etadi.

Dunyo mamlakatlarining ichki turizm bo'yicha ma'lumotlari (bir kechalik tashrif buyuruvchilar hisobida) tahlil qilinganda, 2020-yilda ichki turizm sayohatlarining xalqaro sayohatlarga nisbati eng yuqori bo'lgan mamlakatlar qatoriga Hindiston, Braziliya, Xitoy va Venesuela kiradi. Ushbu mamlakatlarda ichki turistik sayohatlar ulushi xalqaro sayohatlar soniga nisbatan 97 % yoki undan yuqori darajani tashkil etgan. Shuningdek, AQSh, Eron, Avstraliya, Peru, Janubiy Koreya, Yaponiya va Finlandiyada ichki sayohatlar barcha sayohatlarning 90 %dan ortig'ini tashkil qilgan.

Ichki turizm bo'yicha ma'lumotlarni taqdim etgan 73 mamlakatdan 21 tasida ichki turizm sayohatlari soni barcha sayohatlar umumiy hajmining 80 % yoki undan yuqorisini tashkil etgani aniqlangan bo'lib, bu holat ichki turizmning global miqyosdagi muhimligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, ko'plab yo'nalishlarda ichki turizm xalqaro turizmga nisbatan ko'proq daromad keltiradi. Jumladan, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotiga a'zo mamlakatlarda ichki turizm umumiy turizm xarajatlarining 75 %ini tashkil etsa, Yevropa Ittifoqida ichki turizm xarajatlari kirish turizmi xarajatlaridan 1,8 baravar yuqori hisoblanadi.

WTO Bosh kotibi Zurab Pololikashviliyning ta'kidlashicha: "Ichki turizm xalqaro sayohatlarga qaraganda tezroq va barqarorroq tiklanadi. Ichki turizm hajmini hisobga olsak, u ko'plab yo'nalishlarga pandemiyaning iqtisodiy ta'siridan chiqishga yordam beradi, ish o'rinlari va tirikchilik manbalarini yaratadi hamda turizmni rivojlantirish uchun taqdim etilayotgan ijtimoiy imtiyozlarning iqtisodiyotga qaytishini ta'minlaydi".

Xalqaro miqyosda olib borilgan tahlillarga ko'ra, ichki turizm xarajatlari bo'yicha eng yirik bozorlar qatoriga qariyb 1 trillion AQSh dollari bilan AQSh, 249 milliard AQSh dollari bilan Germaniya, 201 milliard AQSh dollari bilan Yaponiya, 154 milliard AQSh dollari bilan Buyuk Britaniya va 139 milliard AQSh dollari bilan Meksika kiradi.

UNWTO nashrlariga ko'ra, ichki turizmni rivojlantirish maqsadida dunyo bo'ylab turli rag'batlantiruvchi choralar amalga oshirilmoqda. Jumladan, ishchilarga bonusli ta'til kunlari taqdim etish, fuqarolarga o'z mamlakatida sayohat qilish uchun vaucherlar va boshqa moliyaviy imtiyozlar berish kabi tadbirlar keng qo'llanilmoqda.

Ichki turizmning ahamiyati va bozor talablarini hisobga olgan holda, ko'plab davlatlar ichki turizm bozorini kengaytirish va rivojlantirishga qaratilgan kompleks choralarni amalga oshirmoqda. Bular qatoriga mahalliy sayyohlar sonini oshirishga qaratilgan maqsadli marketing va reklama tashabbuslari, turistik tashkilotlarga soliq preferensiyalarini joriy etish hamda iste'molchilarni moliyaviy rag'batlantirish choralari kiradi. Xususan:

- Italiyada Bonus Vacanze tashabbusi doirasida yillik daromadi 40 000 yevrogacha bo'lgan oilalarga ichki turistik sayohatlar vaqtida turar joy xarajatlari uchun 500 yevrogacha ajratmalar taklif etildi;

- Malayziyada 113 million AQSh dollari miqdorida sayohat chegirma vaucherlari hamda ichki turizm bilan bog'liq xarajatlar uchun 227 AQSh dollarigacha shaxsiy soliq imtiyozlari taqdim etildi;

- Kosta-Rikada aholining ichki sayohatlarga ko'proq vaqt ajratishini ta'minlash maqsadida 2020- va 2021-yillardagi barcha davlat bayramlari dushanba kuniga ko'chirildi;

- Fransiyada butun mamlakat bo'ylab "Je'te Je Visite La France" ("Men bu yozda Fransiya tashrif buyuraman") nomli targ'ibot kampaniyasi amalga oshirildi;

– Argentinada ichki sayyohlarning xatti-harakatlarini chuqur o'rganish maqsadida Ichki turizm observatoriyasi tashkil etildi;

– Tailandda mehmonxonalarda 5 million tun uchun 5 kechagacha bo'lgan xona narxlarining 40 %i miqdorida subsidiya berish tizimi joriy etildi.

Yuz yillik tarixga ega bo'lgan turizm sohasi va turizm xizmatlariga bo'lgan talab yildan-yilga ortib bormoqda. Amaliy tajriba shuni ko'rsatadiki, hozirga qadar biror-bir davlat turizm sohasi orqali zarar ko'rmagan, aksincha, turizmning rivojlanishi iqtisodiyotning rivojlanishiga, iqtisodiyotning rivojlanishi esa turizmning yanada taraqqiy etishiga xizmat qilib kelmoqda. Shu bois, turizm sohasidagi talablarni qondirish zamonaviy iqtisodiy rivojlanishning muhim shartlaridan biriga aylanmoqda. Ushbu jarayon quyidagi asosiy xususiyatlar bilan tavsiflanadi:

- iqtisodiyot rivojlanishi bilan turizm ham izchil rivojlanadi;
- aholi daromadlari darajasidagi o'zgarishlar turizm sohasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi;
- davlatlararo munosabatlarning yaxshilanishi turizm sohasining rivojlanishiga ijobiy ta'sir qiladi, aksincha holatlar esa salbiy oqibatlarga olib keladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda xalqaro turizm sohasidagi asosiy o'zgarishlarni statistik jihatdan tahlil qilish maqsadida 1996–2019-yillar oralig'i tanlab olindi. Ushbu davrni tanlash bir necha muhim omillar bilan asoslanadi. Birinchidan, xalqaro turizm ko'rsatkichlari aynan 1996-yildan boshlab ko'plab mamlakatlarda rasmiy statistik ma'lumotlar sifatida tizimli ravishda shakllantirila boshlangan. Bu holat tadqiqot uchun ishonchli va taqqoslanadigan ma'lumotlar bazasini yaratish imkonini beradi.


Ikkinchidan, tanlangan davr xalqaro turizm rivojlanishidagi asosiy tendensiyalarni aniqlash, turizm oqimlarining o'zgarishini baholash hamda turli iqtisodiy va ijtimoiy omillarning ta'sirini kuzatish uchun yetarli hisoblanadi. Ushbu vaqt oralig'i davomida xalqaro turizm o'sish, pasayish va tiklanish jarayonlari kuzatilgan bo'lib, bu esa turizm sohasining moslashuvchanligi va barqarorligini statistik tahlil qilish imkonini beradi.

Shu sababli, 1996–2019-yillar oralig'idagi ma'lumotlardan foydalanish xalqaro turizm rivojlanishining umumiy qonuniyatlarini aniqlash, mavjud tendensiyalarni baholash hamda keyingi ilmiy xulosalar chiqarish uchun metodologik jihatdan asoslangan hisoblanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalariga ko'ra, mazkur davr oralig'ida dunyo miqyosida xalqaro turistlar soni dinamikasida o'zgarish tendensiyasi uch marotaba qayd etilgan (1.3-rasm), ya'ni 1998–1999-yillar, 2001–2003-yillar hamda 2008–2009-yillar oralig'ida. Shu bilan birga, ta'kidlash joizki, turizm sohasi mazkur inqirozlardan so'ng nisbatan qisqa muddatda qayta tiklangan. Bunday moslashuvchanlik turizm sohasining barqaror va yashovchan tarmoqlardan biriga aylanib borayotganligidan dalolat beradi.

Turizm sohasida yuzaga keladigan inqirozlar, avvalo, iqtisodiy va moliyaviy inqirozlar hamda boshqa tashqi omillar bilan bog'liq hisoblanadi. Birinchi yirik inqiroz 1997–1998-yillarda sodir bo'lib, Osiyo mamlakatlarida yuz bergan iqtisodiy inqiroz xalqaro miqyosda turistlar soni va turizm tushumlarining keskin kamayishiga olib keldi(1-rasm).



1-rasm. 2000–2023-yillarda xalqaro turistlar dinamikasi, (%da)



Tailanddan boshlangan mazkur iqtisodiy inqiroz Malayziya va Indoneziya davlatlarida yalpi ichki mahsulot hajmining o'zgarishiga hamda turistlar oqimining kamayishiga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Shunga qaramasdan, turizm sohasi qisqa vaqt ichida o'z holatiga qaytdi va hatto ayrim yo'nalishlarda avvalgi davrlarga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi. Jumladan, 2000-yilda turizm sohasida 8 % o'sish qayd etildi. Ayniqsa, Janubiy Osiyo davlatlari xalqaro turizm bozorida o'zlarining mustahkam o'rniga ega bo'la boshladi. Tailand, Malayziya va Xitoy davlatlarida turizmning YalMdagi ulushi 10 %ga yetdi, ayrim davlatlarda esa bundan ham yuqori natijalarga erishildi.


2001-yil 11-oktyabrda AQShda sodir bo'lgan terroristik harakatlar hamda 2003-yilda Kanadada qayd etilgan SARS epidemiyasi Amerika qit'asida turistlar soni va turizm tushumlariga salbiy ta'sir ko'rsatib, turizm bozorini inqiroz yoqasiga olib keldi. Jumladan, Osiyo qit'asidan Amerikaga tashriflar 32 %gacha kamaydi. Asosiy donor davlatlar bo'lgan Yaponiya, Xitoy, Gonkong va Janubiy Koreyadan 2003-yil aprel–may oylarida turistlar oqimi mos ravishda 40 % va 70 %ga qisqardi.

2008-yilda boshlangan Jahon moliyaviy inqirozi turizm sohasiga avvalgi inqirozlarga nisbatan ancha kuchli zarar yetkazdi. Inqiroz natijasida aholi va xalqaro kompaniyalar daromadlari kamaydi, turistik mahsulotlar narxлари oshdi. Ayniqsa, turizm rivojlangan Gretsiya davlatida turistik tushumlar 32 %ga qisqardi. Bundan tashqari, deyarli barcha mamlakatlarda turistlar soni va turizm tushumlari kamaydi, xalqaro turistlar soni oldingi yilga nisbatan 4 %ga qisqardi. Shunga qaramay, turizm sohasi ushbu inqirozdan ham tez chiqib, o'zining ishonchilligi va yashovchanlik darajasi yuqori ekanligini yana bir bor isbotladi. 2010-yilga kelib xalqaro turistlar soni 1 milliard kishiga yetdi, bu esa 2008-yilga nisbatan ikki barobar o'sishni anglatadi. Bunday holat dunyo iqtisodiyotining boshqa tarmoqlarida deyarli kuzatilmagan.

Umuman olganda, hozirgi kunga qadar xalqaro turistlar dinamikasi 1996-yildagi darajaga to'liq yetgani yo'q, 2004-yilga nisbatan esa 2018-yilda turistlar soni deyarli ikki barobar kam bo'lgan. Turistlar oqimining qisqarishi bevosita turizm tushumlarining kamayishiga olib keladi. Mazkur yillarda ayrim davlatlarda turizm tushumlari keskin pasaygan. Xususan, Tailand, Hindiston, Pokiston va Koreyada turizm tushumlari 17 %dan 70 %gacha kamayib, bu holat yalpi ichki mahsulot hajmining qisqarishiga sabab bo'lgan.

Jahon banki va Butunjahon turizm tashkiloti ma'lumotlari asosida 1996–2019-yillar davomida barcha davlatlar bo'yicha kiruvchi turistlar oqimining o'rtacha qiymati aniqlanib, ularning geografik xaritasi tuzildi. Mazkur xaritani ishlab chiqishda MS Excel–2018 dasturidan foydalanildi. Har bir davlat bo'yicha tanlangan davr uchun kiruvchi turistlar o'rtacha soni hisoblanib, ushbu ko'rsatkich asosida davlatlar quyidagi guruhlariga ajratildi: 3 milliongacha, 3–9 million, 9–16 million, 16–25 million va 25 milliondan yuqori.

Davlatlar va qit'alar kesimida turistlar oqimining joylashuvi hamda turizm rivojlanish darajasini aniqlash maqsadida kiruvchi turistlar o'rtacha ko'rsatkichlari asosida xarita tuzish muhim ahamiyatga ega. Ushbu ko'rsatkich, birinchidan, investorlar uchun muhim qo'llanma bo'lsa, ikkinchidan, mamlakatlarning turizm jozibadorligini statistik baholashda muhim indikator hisoblanadi. Boshqacha aytganda, turizm industriyasi investorlari va bo'lajak turistlar murakkab hisob-kitoblarsiz mazkur xarita asosida qaror qabul qilishlari mumkin(2-rasm).



2-rasm. 2000–2023-yillarda davlatlar kesimida xalqaro turistlar oqimining o'rtachasi

Xaritadan ko'rinib turibdiki, turistlar oqimi davlatlar va qit'alar bo'yicha notekis taqsimlangan bo'lib, har bir qit'ada turizm rivojlangan davlatlar mavjud. Xalqaro turizmni retrospektiv tahlil qilishda qit'alararo statistik baholash muhim ahamiyat kasb etadi. Bu, bir tomondan, turistlar oqimining hududiy joylashuvini tavsiflash, ikkinchi tomondan, xalqaro turizmni hududlar kesimida rejalashtirish hamda turizm jozibadorligini oshirishda ilg'or tajribalardan foydalanish imkonini yaratadi.

Hozirgi kunda xalqaro turizm Yevropa mamlakatlari iqtisodiyotining asosiy daromad manbalaridan biriga aylangan. Turizm Yevropa aholisining turmush darajasini yaxshilashda muhim rol o'ynamoqda. Yevropa mamlakatlarning siyosiy-iqtisodiy markaz sifatidagi mavqei, shuningdek, xalqaro seminarlar, simpoziumlar va konferensiyalarning muntazam o'tkazilishi ularning shaharlarini jahon miqyosida tanitib, turizm rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

So'nggi yillarda sport musobaqalari, jumladan, futbol, xokkey, tennis, basketbol va boshqa sport turlari bo'yicha jahon chempionatlari ham xalqaro sayohatlarning oshishiga turtki bermoqda. Masalan, 2019-yilda Rossiyada bo'lib o'tgan futbol bo'yicha jahon chempionatida mamlakatga qariyb 50 million turist tashrif buyurgan.

Turizm rivojlanishining muhim omillaridan biri biznes faoliyati bilan bog'liq. Germaniya, Angliya, Italiya va Fransiya kabi Yevropa mamlakatlari arzon narxdagi, sifatli mahsulotlar markazi sifatida tanilib, "bagaj" turizmining rivojlanishiga katta hissa qo'shib kelmoqda. Jumladan, 2020-yilda Fransiya qariyb 10 million turist aynan shu maqsadda tashrif buyurgan.

Shuni ta'kidlash joizki, so'nggi yillarda Yevropaning xalqaro turizm bozoridagi ulushi nisbatan pasayib bormoqda. Biroq bu holat Yevropada turizm pasayganini emas, balki boshqa qit'alarda turizmning jadal rivojlanayotganini anglatadi. 1996–2020-yillar davomida Yevropaning xalqaro turistlar oqimidagi ulushi 40–60 % oralig'ida bo'lib kelgan. Bu holat Yevropada qulay infratuzilmaning mavjudligi hamda turistlarning bir safar davomida bir nechta davlatlarga tashrif buyurish imkoniyati bilan izohlanadi.

Tadqiqot davomida 2000–2024-yillar ma'lumotlarining retrospektiv tahlili asosida turizm sohasida yuqori natijalarga erishgan davlatlar aniqlangan. Ushbu davlatlarni aniqlashda keluvchi turistlar soni, turizm YaQQi, turizmning YalMdagi ulushi hamda turizm sohasidagi bandlik darajasi asosiy mezon sifatida qabul qilindi (1-jadval).


1-jadval. 2000–2024-yillarda turizm sohasi rivojlangan davlatlar

№	Davlatlar	Keluvchi turistlar soni, mln kishi	Turizm YaQQi, mlrd AQSh doll.	YalMdagi ulushi, %	Turizm sohasidagi bandlik, %
1	Fransiya	74	180	6,5	12,0
2	AQSh	55	1 040	4,8	9,2
3	Ispaniya	53	182	11,6	13,4
4	Xitoy	42	1 032	8,0	10,3
5	Italiya	41	190	10,2	12,1
6	Buyuk Britaniya	27	202	8,0	10,2
7	Germaniya	24	210	5,6	12,0
8	Meksika	23	170	7,2	9,8
9	Turkiya	22	85	9,1	15,2
10	Rossiya	21	90	8,6	11,9
—	O'zbekiston	2	5	3,0	1,0

Tadqiqot natijalariga ko'ra, Fransiya, AQSh, Ispaniya, Xitoy, Italiya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Meksika, Turkiya va Rossiya davlatlarida turizm boshqa davlatlarga nisbatan yuqori darajada rivojlangan. 1996–2024-yillar davomida eng ko'p turistlar Fransiya tashrif buyurgan bo'lib, ularning soni 74 million kishini tashkil etgan. Keyingi o'rinlarda AQSh (55 million) va Ispaniya (53 million) joylashgan.

Turizm YaQQi bo'yicha AQSh va Xitoy yetakchi bo'lib, ushbu sohada yaratilgan mahsulot hajmi har ikkala davlatda ham 1 trillion AQSh dollaridan oshgan. Bu holat ushbu mamlakatlarda ichki turizmning ham yuqori darajada rivojlanganligini ko'rsatadi. Ispaniya turizmning YalMdagi ulushi bo'yicha yetakchi davlatlardan biri bo'lsa, Turkiyada band aholining 15 %i turizm sohasida faoliyat yuritadi.

Turizm tushumlari davlatlar eksportida tobora muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. Turizm tushumlarining o'sish sur'atlari umumiy eksport dinamikasiga nisbatan yuqoriroq ekanligi 3-rasm ma'lumotlari orqali tasdiqlanadi(3-rasm).



3-rasm. 2000–2023-yillar davomida turizm tushumlari va ularning umumiy eksportdagi dinamikasi, (%da)

Rasm ma'lumotlariga ko'ra, barcha mamlakatlarda YAIM o'sish sur'atlari turizm tushumlari o'sish sur'atlariga nisbatan past bo'lib, bu turizmning iqtisodiyotdagi o'rni yildan-yilga ortib borayotganidan dalolat beradi.

Xalqaro turizmni retrospektiv statistik tahlil natijalariga ko'ra, turizm tarmog'ining yuqori moslashuvchanlik va yashovchanlik xususiyatlariga ega bo'lishiga qaramasdan, uning ko'rsatkichlari barqaror o'sish tendensiyasiga ega emas. Bundan tashqari, turizmning qit'alar va alohida davlatlar bo'yicha rivojlanish darajasi keskin farqlanadi. Masalan, Fransiya va O'zbekistonni taqqoslaganda variatsiya koeffitsiyenti 90 %ni tashkil etadi.

BMT, BTT va boshqa xalqaro tashkilotlar tomonidan turizm statistikasi va Turizm yordamchi hisoblarini (TYoH) yuritish bo'yicha umumiy tavsiyalar ishlab chiqilgan bo'lsa-da, ko'plab davlatlar ushbu tizimni o'z milliy xususiyatlariga moslashtirgan holda qo'llamoqda. Jumladan, Gretsiyada TYoHning o'nta jadvalidan to'rttasi to'ldiriladi hamda turizm tushumlari va xarajatlarini aniqlashda tanlanma kuzatuv bilan bir qatorda to'lov balansi ma'lumotlaridan foydalaniladi. Bu jarayonda Gretsiya Markaziy banki tomonidan turistlar amalga oshirgan valyuta ayirboshlash va plastik karta orqali to'lovlar haqidagi ma'lumotlar hisobga olinadi. Ushbu metodning afzalliklariga qaramasdan, uni norasmiy iqtisodiyot ulushi yuqori bo'lgan davlatlarda, jumladan O'zbekistonda qo'llash ma'lumotlarning ishonchligini pasaytirishi mumkin.

Fransiyada turizm statistikasi bilan Fransiya statistika qo'mitasi, Turizm qo'mitasi va Milliy bank shug'ullanadi. Mamlakatning barcha chegara postlarida yilda bir marotaba tanlanma kuzatuv o'tkazilib, turistlar haqidagi ma'lumotlar jamlanadi. Bundan tashqari, Fransiya Milliy banki tomonidan turistlar amalga oshirgan plastik karta to'lovlari asosida eksport va import ko'rsatkichlari aniqlanadi.

Polshada turizm statistikasi Polsha Markaziy statistika boshqarmasi (MSB) tomonidan yuritiladi. Mazkur boshqarma o'z faoliyatida Yevrostat, BMT va Jahon turizm tashkiloti tavsiyalariga amal qiladi. Hozirgi kunda Polsha MSB turizm instituti va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish vazirligi bilan hamkorlikda turizm statistik ko'rsatkichlarini takomillashtirish bo'yicha quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda:

- joylashtirish vositalari bo'yicha oylik ma'lumotlarni e'lon qilish;
- turistlar oqimi hamda eksport va import ko'rsatkichlari bo'yicha yiliga 6 marta tanlanma kuzatuvlar o'tkazish;
- har 3 yilda bir marotaba ichki turizm bo'yicha uy xo'jaliklari o'rtasida tanlanma kuzatuv o'tkazish.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, turizm statistikasini hisobga olish va yuritish bo'yicha xalqaro miqyosda boy tajriba to'plangan bo'lib, ushbu yo'nalishda turli xil zamonaviy va samarali standartlar ishlab chiqilgan. Mazkur standartlar turizm sohasining iqtisodiyotdagi o'rnini chuqurroq baholash, statistik ma'lumotlarning aniqligi va taqqoslanishini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, ushbu standartlar milliy sharoit va xususiyatlarni inobatga olgan holda moslashtirilishi turizm statistikasi samaradorligini yanada oshirish imkonini beradi.



O'zbekiston Respublikasida turizm sohasining jadal rivojlanishi va uning iqtisodiyotdagi ulushi ortib borayotgan bir sharoitda xalqaro tajriba va standartlardan foydalanish uchun keng imkoniyatlar mavjud. Shu munosabat bilan, dissertatsiyaning keyingi bo'limlarida O'zbekistonda xalqaro tajriba va ilg'or yondashuvlarga tayangan holda turizm statistik hisobini tashkil etish va yuritishni takomillashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish maqsad qilib qo'yiladi. Bu esa turizm statistikasining sifatini oshirish, tahliliy imkoniyatlarini kengaytirish hamda sohani rivojlantirish bo'yicha samarali qarorlar qabul qilishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Shodiev X., Xabibullaev I. Statistika: darslik. – T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2019. – 454 b.
2. G'oyibnazarov B.K., Kolonova L. Ijtimoiy soha iqtisodiyoti. – T., 2007. – 106 b.
3. Pardayev A.X., Norchaev A.N. Xalqaro turizm: darslik. – T.: TDIU, 2010. – 260 b.
4. Demioz D.M., Ongan S. (2005). The contribution of tourism to long-run Turkish economic growth. *Ekonmcky Casopis*, 9, pp. 880–894.
5. www.stat.uz – O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi.
6. <https://uniwork.buxdu.uz/resurs>

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100